



# INNOVATION IQTISODIYOT

*Ilmiy-amaliy elektron jurnal*

**2026**

**No 1**

**ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА**

Научно-практический электронный журнал

**INNOVATIVE ECONOMY**

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



# INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY  
ELEKTRON JURNAL

**1-jild  
1-son  
yanvar, 2026**

**January, 2026  
Volume 1  
Number 1**

**ИННОВАЦИОННАЯ  
ЭКОНОМИКА  
Научно-практический  
электронный журнал**

**INNOVATIVE ECONOMY  
Electronic scientific and  
practical journal**



## INNOVATSION IQTISODIYOT

### ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

#### Muassis:

**Qarshi davlat texnika universiteti**

**Tahririyat Kengashi raisi:**

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:**

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

#### Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

#### Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

*Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.*

#### Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

**Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:**

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

#### TAHRIRIYAT KENGASHI:

##### Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

##### Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)



## ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

### Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

**Учредитель:**

**Каршинский государственный технический университет**

**Председатель редакционного совета:**

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

**Заместитель председателя редакционного совета:**

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

**Ответственный редактор:**

Н.А.Очилова, PhD, доцент

**Технический редактор:**

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

*Адрес редакции:*

180100, г. Кариш, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: [innoeconomic@kstu.uz](mailto:innoeconomic@kstu.uz)

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

#### Редакционная коллегия:

##### Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

##### Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каришбоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DCs), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DCs), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакан Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)



**Moliya, kredit va investitsiya**  
**Finance, credit and investment**  
**Финансы, кредит и инвестиции**



UDK: 378.1:336.14

<https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.1.1.2026.34>

# O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI MOLİYAVIY TA'MINOTINI MUSTAHKAMLASH MASALALARI

*Hamrayev Maqsudjon Saidaxmadovich*

## ВОПРОСЫ УСИЛЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

*Хамраев Максуджон Саидахмадович*

## ISSUES OF STRENGTHENING THE FINANCIAL SUPPORT OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN

*Khamrayev Maqsudjon Saidakhmadovich*

Received: January 12, 2026 Revised: January 16, 2026 Accepted: January 21, 2026 Published: February 1, 2026

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarini moliyaviy ta'minotini mustahkamlashning dolzarb masalalari tahlil qilinadi. Hozirgi kunda oliy ta'lim tizimining samarali ishlashi va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash davlatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita bog'liqdir. Maqolada davlat byudjeti, kontrakt to'lovlari, grantlar va xususiy investitsiyalar kabi moliyalashtirish manbalarining samaradorligi o'rganiladi. Shuningdek, moliyaviy mustaqillikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va natijaga yo'naltirilgan moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish zarurati ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarining barqarorligini mustahkamlash va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, moliyaviy ta'minot, byudjet mablag'lari, grantlar, moliyaviy mustaqillik, kontrakt to'lovlari.

**Аннотация.** В статье рассматриваются актуальные вопросы укрепления финансового обеспечения высших учебных заведений в Узбекистане. Эффективное функционирование системы высшего образования и подготовка конкурентоспособных кадров напрямую влияют на экономическое и социальное развитие страны. В работе анализируются источники финансирования, такие как государственный бюджет, платное обучение, гранты и частные инвестиции. Особое внимание уделяется повышению финансовой независимости вузов, рациональному использованию ресурсов и внедрению результативных моделей финансирования. Результаты исследования способствуют укреплению устойчивости высших учебных заведений и повышению качества образования.

**Ключевые слова:** высшее образование, финансовое обеспечение, бюджетные средства, гранты, финансовая независимость, платное обучение.

**Abstract.** This article examines the pressing issues of strengthening the financial support of higher education institutions in Uzbekistan. The effective functioning of the higher education system and the preparation of competitive specialists directly impact the country's economic and social development. The study analyzes funding sources such as the state budget, tuition fees, grants, and private investments. Particular emphasis is placed on increasing financial autonomy, efficient resource utilization, and implementing performance-based financing mechanisms. The research findings contribute to enhancing the stability of higher education institutions and improving the quality of education.

**Keywords:** higher education, financial support, state budget, grants, financial autonomy, tuition fees.

### ■ KIRISH

O'zbekistonda so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, universitetlarning moliyaviy mustaqilligini oshirish,

byudjetdan tashqari mablag'lar ulushini kengaytirish, grant va kontrakt tizimini takomillashtirish kabi chora-tadbirlar alohida e'tibor qozonmoqda. Biroq, mavjud moliyalashtirish mexanizmlari asosan markazlashgan byudjet tizimiga tayanadi, bu esa universitetlarning tashabbuskorligini cheklab, resurslardan foydalanish



samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shu sababli, oliy ta'lim muassasalarini moliyaviy jihatdan mustahkamlash va resurslarni diversifikatsiya qilish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir.

Mavzuni o'rganishning ahamiyati shundan iboratki, moliyaviy ta'minotni mustahkamlash orqali oliy ta'lim muassasalari o'z faoliyatini barqaror va sifatli tarzda amalga oshirishi mumkin. Bu esa nafaqat ta'lim sifati va ilmiy salohiyatni oshirishga, balki mamlakatning raqobatbardosh iqtisodiy rivojlanishiga ham hissa qo'shadi. Shu bilan birga, moliyaviy barqarorlik universitetlarni natijaga yo'naltirilgan moliyalashtirish tizimini joriy etishga, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirishga va yangi moliyaviy manbalarni jalb qilishga undaydi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy ta'minotini mustahkamlash mexanizmlarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarining barqarorligini mustahkamlash, resurslardan samarali foydalanish va ta'lim sifati oshirishga xizmat qiladi, shuningdek, davlatning ta'lim siyosatini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### ■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Oliy ta'lim muassasalarini moliyaviy ta'minotini mustahkamlash masalalari so'nggi yillarda mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng o'rganilmoqda. O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini isloh qilish va universitetlarning moliyaviy barqarorligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-5847 (2019) oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini oshirish va byudjetdan tashqari moliyalashtirish manbalarini kengaytirish zaruratini belgilaydi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2019, 3–12-betlar).[2; 62]

Mahalliy olimlardan Abdullayev A.X. (2020) oliy ta'limni moliyalashtirish mexanizmlarini tahlil qilgan va samarali taqsimlashni takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqqan (Abdullayev, 2020, 45–98-betlar). Qodirov M.Q. (2021) esa universitetlarda moliyaviy menejment va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish usullarini o'rganib, amaliy tavsiyalar bergan (Qodirov, 2021, 62–110-betlar). Shu bilan birga, Jo'rayev N.R. (2019) davlat-xususiy sheriklik asosida ta'limni moliyalashtirish mexanizmlari va ularning samaradorligini yoritgan (Jo'rayev, 2019, 33–79-betlar).[4; 105]

#### ■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llaniladi. Tahliliy metod orqali O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy ta'minoti va resurslar taqsimoti o'rganiladi. Taqqoslash metodi yordamida rivojlangan davlatlar tajribasi bilan milliy tizim solishtiriladi va samarali jihatlar aniqlanadi. Statistik tahlil usuli orqali moliyaviy resurslarning hajmi, kontrakt va grant mablag'lari dinamikasi baholanadi. Shuningdek, tizimli yondashuv yordamida moliyalashtirish mexanizmlarining ta'lim sifati, ilmiy faoliyat va universitetlarning barqarorligiga ta'siri tahlil

qilinadi. Ushbu metodlar tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini ta'minlaydi.

#### ■ TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarini moliyaviy ta'minotini mustahkamlash masalalarini tahlil qilish jarayonida bir qator ijobiy va takomillashtirish talab qiladigan jihatlar aniqlanadi. So'nggi yillarda davlat tomonidan oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, universitetlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ta'lim sifati oshirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, byudjet mablag'larini ko'paytirish, yangi universitet va filiallarni tashkil etish, kontrakt va grant tizimini takomillashtirish orqali oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga intilishlar mavjud.[6; 74]


Biroq, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy ta'minoti asosan markazlashgan byudjet tizimiga tayanmoqda. Bu universitetlarning moliyaviy mustaqilligini cheklab, resurslardan samarali foydalanish va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kamaytiradi. Shu bois, byudjetdan tashqari mablag'lar ulushini oshirish, xususiy investitsiyalarni jalb etish va grant tizimini kengaytirish dolzarb vazifalardan biridir. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, kontrakt asosida ta'lim olishdan tushadigan daromadlar universitetlar faoliyati uchun muhim manba bo'lishiga qaramay, ularga haddan tashqari tayanish ijtimoiy tenglik masalasini keltirib chiqaradi va ta'limga kirish imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Shu sababli, qo'shimcha moliyaviy rag'bat va ijtimoiy himoya mexanizmlari joriy etilishi zarur.

Moliyalashtirishning samaradorligi masalasida natijaga yo'naltirilgan yondashuvlar etarlicha joriy etilmagan. Hozirgi tizimda moliyaviy resurslarni taqsimlash ko'proq talabalarning soni, infratuzilma hajmi va mavjud inshootlarga asoslanadi, ta'lim sifati, ilmiy faoliyat samaradorligi va bitiruvchilarning mehnat bozori talablariga moslashuvchanligi kabi mezonlar ikkinchi darajaga tushib qoladi. Shu sababli, universitetlarni natijaga asoslangan moliyalashtirish tizimi orqali rag'batlantirish ularning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari ham etarlicha ishga solinmagan. Xususiy sektorning ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish, qo'shma ta'lim dasturlarini moliyalashtirish va ilmiy loyihalarni qo'llab-quvvatlashga jalb qilinishi universitetlarning moliyaviy barqarorligini oshiradi, byudjet yukini kamaytiradi va ta'lim jarayonini mehnat bozori talablariga moslashtiradi. Shu bilan birga, ushbu hamkorlik universitetlarni tashabbuskorlik va innovatsion loyihalarni amalga oshirishga undaydi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini oshirish ularning tashabbuskorligini kuchaytiradi, moliyaviy qarorlarni tez va samarali qabul qilish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlari bilan uyg'unlashtirilgan moliyaviy mustaqillik universitetlarda resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi.

O'zbekistonda oliy ta'limni moliyalashtirish hajmi (2019–2023)



1- rasm. O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish bo'yicha statistik tahlil

Natijalar asosida oliy ta'limni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali ta'lim sifati, ilmiy salohiyat va kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish mumkinligi aniqlandi. Moliyaviy resurslarni diversifikatsiya qilish, natijaga yo'naltirilgan moliyalashtirish tizimini joriy etish, grant va kontrakt tizimini takomillashtirish hamda davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish oliy ta'lim muassasalarining barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar O'zbekiston oliy ta'lim tizimini raqobatbardosh va xalqaro ta'lim maydoniga integratsiyalashuvini jadallashtirishga imkon beradi.

#### ■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy ta'minotini mustahkamlash masalalari bugungi kunda muhim strategik vazifa ekanligini ko'rsatadi. Oliy ta'lim tizimi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, innovatsion salohiyatni oshirishda va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda asosiy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, oliy ta'lim muassasalarining barqaror faoliyat yuritishi ularning moliyaviy resurslari etariligi va samarali boshqarilishiga bevosita bog'liqdir.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini oshirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish va moliyaviy boshqaruvda shaffoflikni ta'minlash O'zbekiston oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir. Ushbu chora-tadbirlar ta'lim sifati va ilmiy salohiyatni oshirishga, shuningdek, mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasiga munosib hissa qo'shishga xizmat qiladi.

#### Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Hamrayev Maqsudjon Saidaxmadovich  
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) /  
Хамраев Максуджон Саидахмадович, доктор  
философии (PhD) по экономическим наукам /  
Khamraev Maqsudjon Saidakhmadovich, Doctor of  
Philosophy (PhD) in Economics

[102\\_07@mail.ru](mailto:102_07@mail.ru)

0009-0000-4148-7570

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayev A.X. Oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishning iqtisodiy mexanizmlari va ularni takomillashtirish. — Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2020. — 45–98-betlar.

2. Qodirov M.Q. Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalalari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. — 62–114-betlar.

3. Jo'rayev N.R. Ta'lim tizimida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning iqtisodiy asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 2019. — 33–79-betlar.

4. Rahmonov B.T. O'zbekistonda oliy ta'limni moliyalashtirish va boshqarish tizimini takomillashtirish. — Toshkent: Iqtisodiyot va ta'lim, 2022. — 51–105-betlar.

5. Karimov S.A. Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlar. — Toshkent: Fan, 2020. — 40–88-betlar.

6. Usmonov D.Sh. Ta'lim sohasida moliyaviy resurslarni rejalashtirish va nazorat qilish mexanizmlari. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. — 27–74-betlar.



# INNOVATION IQTISODIYOT

## ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X



[t.me/kstu\\_uz](https://t.me/kstu_uz)



Qarshi shahri,  
Mustaqillik ko'chasi 225



[www.kstu.uz](http://www.kstu.uz)  
[www.ojs.kstu.uz](http://www.ojs.kstu.uz)